

Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag‘lari hisobidan birlamchi uy-joy bozoridan ko‘p kvartirali uylardan kvartira sotib olish uchun kredit ajratish bo‘yicha ipoteka shartnomasi

№ _____

_____ shaxri _____

Chet el kapitali ishtirokidagi "**Hamkorbank**" aksiyadorlik tijorat banki nomidan yildagi № _____ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi Bankning _____ filiali boshqaruvchisi _____, bundan buyon matnlarda "**Bank**" deb nomlanadi, _____ manzilda yashovchi fuqaro _____, bundan buyon matnda "**Kredit oluvchi**" deb nomlanadi, ikkinchi tarafdan, _____ manzilida yashovchi fuqaro _____ bundan buyon matnda "**Birgalikda kredit oluvchi/BKO**" deb nomlanadi, uchinchi tarafdan, hammalari birgalikda "**Taraflar**" deb nomlanadi, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq Bank Kredit oluvchiga shartnomada ko‘rsatilgan miqdorda va shartlarda, birlamchi uy-joy bozoridan _____ kvartirani sotib olish uchun kredit berish, Kredit oluvchi esa olingan pul mablag‘larini belgilangan muddatda Bankka qaytarish va pul mablag‘laridan foydalanganlik uchun foizlarni to‘lash majburiyatini oladi.

2. Shartnoma bahosi va hisob-kitob tartibi.

2.1. Kredit miqdori: _____ (_____) so‘m belgilandi.

2.2. Kredit foizi, yillik ____ %.

2.3. Kreditdan foydalanish muddati: _____ (_____) oy.

2.4. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar ushbu shartnomada belgilangan nominal stavkada kredit qoldig‘iga nisbatan kunlik hisoblab boriladi.

2.5. Kredit qarzdorlikni qaytarish shartnomaning ajralmas qismi bo‘lgan qaytarish jadvali(1-ilova) asosida amalga oshiriladi.

2.6. Mashkur shartnomaga asosan kredit mablag‘i kvartira pudratchining hisobvarog‘iga nadq pulsiz shaklda pul o‘tkazish yo‘li bilan o‘tkaziladi.

2.7. Kredit va unga hisoblangan foiz(jarima,penya)larni qaytarish Kredit oluvchi /Birgalikda kredit oluvchining istagini ko‘ra, bankning avtoto‘lov xizmati, bank kartasi, naqd pul, pul o‘tkazish yo‘li bilan va qonunchilik hujjalari zid kelmaydigan boshqa to‘lov usullari bilan amalga oshiriladi. Bunda, kelib tushgan mablag‘lar agar mablag‘ kredit qarzdorligini qaytarish grafigi bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikni (tani, fozi) qoplash uchun yetarli bo‘lsa birinchi navbatda neustoyka, muddati o‘tgan qarz foizi, muddati o‘tgan qarz tani, muddatli qarz foizi so‘ngra muddatli qarz tanini so‘ndirishga yo‘naltiriladi. Agar pul mablag‘i yetarli bo‘lmasa qonunchilikda belgilangan tartibda.

2.8. Agar amalga oshirilgan to‘lov summasi qarz oluvchiga ajratilgan kredit bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lmasa, qarz oluvchining qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

a) asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik va muddati o‘tgan foiz to‘lovlari mutanosib ravishda;

b) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik;

c) neustoyka(jarima, penya);

d) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlari.

2.9. Ipoteka krediti foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasi pasaytirilgan taqdirda, mutanosib ravishda kamayadi, oshirilgan taqdirda esa o‘zgarishsiz qoladi.

3. Taraflar majburiyatları

3.1. Kredit oluvchi/birgalikda kredit oluvchining majburiyatları.

3.1.1 Kredit va unga hisoblangan foizlarni ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvalida (1-ilova) belgilangan muddatlarda, to‘liq to‘lash;

3.1.2 Kreditdan faqat mazkur shartnomada ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish.

3.1.3 Kreditdan foydalanish davomida kreditlashning asosiy tamoyillari: muddatlilik, to'lovilik, qaytarishlik, maqsadililik va ta'minlanganlikka rioya kilish;

3.1.4 Bankka yashash manzilini, telefon raqamlarini (uyali, uy, ish) elektron pochta manzilini, ijtimoiy tarmoqlardagi pochta manzillarini (Telegram, WhatsApp, IMO va boshqalar) haqidagi haqqoniy ma'lumotlarni taqdim etish. Ushbu manzillar orqali olingan har qanday ma'lumot Bank uchun qonuniy kuchga ega;

3.1.5 O'zining ish joyi, yashash joyi, familiyasi va ismi o'zgarganda, telefon raqamlari, elektron pochta manzili, ijtimoiy tarmoqdagi manzillari o'zgarganda yoki mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar to'g'risida yozma shaklda yoki o'zlarini uchun maqbul bo'lgan boshqa aloqa kanallari orqali 5 (besh) kun ichida Bankka xabar berish. Ushbu talab bajarilmasligi oqibatida kelib chiqqan salbiy holatlarga Kredit oluvchi/BKO javobgar hisoblanadilar;

3.1.6 Ipoteka krediti hisobidan sotib olgan kvartirani o'z nomiga egalik huquqi rasmiylashtirilgach, 3(uch) bank ish kuni ichida belgilangan tartibda kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yish, garovni rasmiylashtirish chiqimlarini to'lash;

3.1.7 Garov mulkiga shikast yetkazilgan, yaroqsiz holga kelgan, yo'qolgan taqdirda zudlik bilan bankka xabar berish va garov mulkini 10 (o'n) kun ichida yuqori likvidli boshqa mulkka almashtirish;

3.1.8 Kreditni qaytarish jadvaliga nisbatan ortiqcha to'langan mablag' kelgusi davrlarda so'ndirilishi rejalashtirilgan bo'lsa, u holda to'lovni amalga oshirishdan 3(uch) kun oldin Bankka bu haqida yozma murojaat qilish;

3.1.9 Kredit hisobidan xarid qilingan kvartirani but holda saqlanishini ta'minlaydi. Kvartiraning butligi saqlanmaganligi aniqlanganida yoki kvartiraga qasddan shikast yetkazilgan taqdirda, yetkazilgan zarar miqdorini o'z hisobidan yoki garovga qo'yilgan mulk hisobidan to'laydi.

3.1.10 Kredit hisobiga xarid qilingan kvartira Kredit oluvchi tarafidan Kredit oluvchi va uning oila a'zolari yashashi uchun foydalanilishi lozim. Sotib olingan kvartirani ijaraga berish, uchinchi shaxslarni ro'yxatga qo'yish faqat Bank roziligi bilan amalga oshirilishi shart.

3.1.11 Bankka kreditdan maqsadli foydalilanligini tasdiqlovchi hujjatlarni, kvartirani Kredit oluvchiga tegishliligini tasdiqlovchi hujjat(kadastr hujjati asli yoki nusxasi)ni monitoring uchun taqdim etadi.

3.1.12 Kredit oluvchi/BKO shartnoma va garov shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'sir ko'rsatadigan oilaviy holati o'zgarganligi, ish joyi almashtiriganligi, daromadlari o'zgarganligi va boshqa ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etib borishi lozim. Kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda Kredit oluvchi/BKO Bankka o'zining moliyaviy holati haqida yangilangan ma'lumotlarni taqdim etish;

3.1.13 Shartnoma shartlaridan biri bajarilmaganligi va hujjatlar taqdim etilmaganligi oqibatida shartnoma bekor bo'lgan holda ipoteka kreditidan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlar, kredit mablag'larini akkreditiv hisobvaraqa o'tkazish paytidan boshlab bitim bekor bo'lgan paytga qadar Kredit oluvchidan undiriladi. Kredit mablag'larini akkreditiv hisobvaraqdan qaytarish bo'yicha teskari buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi va hisoblangan foizlari Kredit oluvchi boshlang'ich badali xisobidan qoplanadi.

3.1.14 Kreditni qaytarish jadvalidan ortiqcha to'langan mablag' kelgusi davrlarda so'ndirilishi rejalashtirilgan bo'lsa, u holda to'lovni amalga oshirishdan 3(uch) kun oldin Bankka bu haqida yozma murojaat qilish;

3.1.15 Shaxsiy (BKOning xam) bank kartasini bankning "Avto-to'lov" xizmatiga ular;

3.1.16 Ushbu shartnoma va qonunchilik hujjatlaridagi boshqa majburiyatlar.

3.2. Bankning majburiyatli.

3.2.1. Kredit oluvchining huquq va majburiyatları to'g'risida, shu jumladan kredit berish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida kredit oluvchiga ishonchli hamda to'liq axborotni taqdim qilish;

3.2.2. Mazkur shartnomaning 3.1.6.-bandidagi majburiyatlar to‘liq bajarilganidan keyin 3 (uch) bank ish kuni ichida kredit ajratish;

3.2.3. Olingan kredit uchun kredit oluvchi nomiga ssuda hisobraqamlarni ochish;

3.2.4. Kredit oluvchini kreditni muddatidan ilgari undirish holati va sabablari haqida oldindan xabardor qilish;

3.2.5. Kredit oluvchining tegishli so‘rovi bankda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida kredit oluvchi tomonidan berilgan ariza va kredit oluvchiga kredit berilganligini tasdiqlovchi hujjatni hamda bir ish kuni ichida shartnoma bo‘yicha kredit oluvchi tomonidan majburiyatlar to‘liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etish;

3.2.6. Shartnoma bo‘yicha kredit oluvchidan majburiyatlar bajarilmasligi sabablari, holati, muddati, summalar, tarkibi haqida so‘rash, shuningdek majburiyatlar buzilgani uchun neustoyka (jarima, penya) qo‘llanishi natijasida xarajatlar summasi ortishi ehtimoli haqida ogohlantirish;

3.2.7. Shartnoma bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, kredit oluvchi bilan har qanday aloqa bog‘lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki boshqa usullardan foydalanib, kredit oluvchiga muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berish;

3.2.8. Garov predmeti sifatida qo‘yilgan birdan-bir turar joy faqat sud tartibida undirilishi mumkinligi va garov predmeti ommaviy savdolar orqali realizatsiya qilinishini(qonun hujjatlarida nazardan tutilgan hollar bundan mustasno) qarz oluvchiga ma’lum qiladi.

3.2.9. Mazkur shartnomaning 3.1.8- bandiga muvofiq kredit oluvchi/BKOning arizasi mavjud bo‘lmagan holda, kreditning joriy to‘lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko‘p mablag‘ kelib tushgan taqdirda, ushbu mablag‘ning ortiqcha qismini kreditning asosiy qarzini so‘ndirishga yo‘naltirish xamda kelgusi ish kunidan qoldiq summaga nisbatan foiz hisoblash;

3.2.10. Ushbu shartnoma amal qilish davrida kredit oluvchining so‘rovi olinganidan so‘ng bir ish kuni ichida unga quyidagi axborotlarni yozma shaklda oyda bir marta bepul taqdim etish: kreditlash limiti, kredit bo‘yicha to‘langan pul mablag‘lari summasi, asosiy summa bo‘yicha qarz qoldig‘i, navbatdagi to‘lovlarning miqdori, tarkibi va muddatlari (to‘lovlар jadvali), kreditni muddatidan oldin qisman yoki to‘liq so‘ndirish istagi bildirilgan taqdirda to‘lash lozim bo‘lgan summalar miqdori, muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik miqdori va tarkibi, kelib tushayotgan pul mablag‘lari kredit bo‘yicha qarzni so‘ndirishga yo‘naltirilishi haqida axborotlar;

3.2.11. Kredit oluvchi shartnoma bo‘yicha barcha to‘lov majburiyatini to‘liq bajargan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur kredit bo‘yicha garov mulkini taqiqdan chiqarish hamda garov mulkiga nisbatan bankning huquqlari to‘g‘risidagi yozuvni garov reestridan o‘chirish;

3.2.12. Shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, bu haqda tegishli qaror qabul qilingan sananing ertasidan kechikmasdan Kredit oluvchiga yozma xabarnoma yuborish;

3.2.13. Kredit shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan foiz stavkasi o‘zgarganda yoki mazkur shartnomaning 3.2.9.-bandida belgilangan vaziyat yuz bergan taqdirda, kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirish va kredit oluvchiga taqdim etish. Bunda, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvali kuchini yo‘qotadi va taraflar uchun yangi qaytarish jadvali majburiy hisoblanadi;

3.2.14. Shartnoma bekor qilingan taqdirda, bank to‘lab berilgan subsidiyalarni qarz oluvchilardan belgilangan tartibda qaytarish choralarini ko‘radi.

4. Taraflarning huquqlari.

4.1. Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining huquqlari:

4.1.1. O‘z huquq va majburiyatlar to‘g‘risida, shu jumladan ipoteka krediti berish bilan bog‘liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to‘liq axborot olish;

4.1.2. Shartnoma tuzilgan kundan e’tiboran ikki hafta ichida Bankni yozma ravishda xabardor etish orqali foydalilmagan kreditdan voz kechish. Bunda, voz kechish kunigacha qilingan xarajatlar Kredit oluvchi/BKO zimmasida qoladi;

4.1.3. Kreditni muddatidan oldin qaytarish. Bunda, kredit uchun foizlar kredit to‘liq qaytarilgan kungacha qadar hisoblanadi;

4.1.4. Kredit ajratish va hisob-kitoblar bo‘yicha amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki me’yoriy hujjatlariidagi o‘zgarishlar haqida Bankdan ma’lumot olish;

4.1.5. Bankdan majburiyatlarning o‘z vaqtida va lozim darajada bajarilishini talab qilish, majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplashni talab qilish;

4.1.6. Olingan kredit to‘lovlarini masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda amalga oshirish;

4.1.7. Kredit to‘lovlar shaklini hamda kreditni qaytarish turini (differensial va annuitet), shuningdek baholash xizmatlarini mustaqil tanlash;

4.1.8. Ushbu shartnomaga va qonunchilik hujjatlariidagi boshqa huquqlar.

4.2. Bankning huquqlari:

4.2.1. Kredit oluvchi shartnomasi tuzilgan kundan e’tiboran bir oy ichida kreditdan foydalananmagan taqdirda, shartnomani bekor qilish haqida ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor etish orqali shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish;

4.2.2. Kredit berish va shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida va lozim darajada bajarishni talab qilish, zarur hujjatlarni Kredit oluvchi/BKO dan so‘rab olish;

4.2.3. Garov mulkining holati, saqlanishi va maqsadlilik bo‘yicha tekshiruvlarni amalga oshirish;

4.2.4. Taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyligiga shubha tug‘ilganida, monitoring o‘tkazish maqsadida, shuningdek muddati o‘tgan qarzdorliklar yuzaga kelgan taqdirda, Kredit oluvchi/BKO larga qo‘ng‘iroq qilish yoki yozma murojaat berish;

4.2.5. O‘zaro muzokalarlarni (bayonnoma shaklida, telefon qo‘ng‘iroqlari, audio, video va boshqa istalgan usullarda) yozib olish, shuningdek ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda murojaatni tasdiqlash uchun ushbu dalilni ishlatish;

4.2.6. Kredit oluvchining joriy yoki muddati o‘tgan majburiyatlarini (qarzlari)ni so‘ndirish maqsadida, mablag‘larni quyidagi usullar yordamida hisobdan chiqarish:

a) Kredit oluvchi/BKO nging har qanday banklarda va boshqa moliya muassasalaridagi hisobvaraqlariga akseptsiz to‘lov talablarni qo‘yish;

b) Kredit oluvchi/BKO nging Bankdagi bank hisobvaraqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri debetlash yo‘li bilan.

4.2.7. Ushbu shartnomaga va qonunchilik hujjatlariidagi boshqa huquqlar.

5. Taraflar javobgarligi:

5.1. Kredit oluvchi/ birgalikda kredit oluvchining javobgarligi.

5.1.1 Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda, Bankka butun kechiktirilgan muddat davomida kechiktirilgan to‘lovlar uchun shartnomaning 2.2-bandida belgilangan foiz stavkasining 1,5 baravari miqdorida oshirilgan foiz to‘laydi.

5.1.2 Asosiy qarz va foizlarni o‘z muddatida to‘lamagan taqdirda, to‘lov kechikkkan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning **0.2** foizi miqdorida Bankka penya to‘laydi.

5.1.3 Kredit mablag‘lari hisobiga sotib olingan kvartira shartnomada belgilangan muddatda garovga qo‘yilmagan yoki tegishli hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, shuningdek, mazkur shartnomasi talablari bajarmaganida Bankka har bir muddati o‘tkazib yuborilgan kun uchun garov summasining 0.1 foizi miqdorida penya to‘laydi.

5.1.4 Kreditdan maqsadsiz foydalilanligi aniqlanganida, maqsadsiz foydalilanligan kredit miqdorining 25% miqdorida bankka jarima to‘lash bilan birga maqsadsiz ishlatilgan kredit mablag‘ini Bankka muddatidan oldin qaytaradi.

5.2 Bankning javobgarligi.

5.2.1. Kredit mablag‘larini berish majburiyatini bajarmaganida yoki o‘z vaqtida bajarmaganida Kredit oluvchiga kechiktirilgan to‘loving har bir kuni uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0.1% miqdorida penya to‘laydi.

5.2.2. Kredit oluvchi mazkur shartnomada bo'yicha barcha majburiyatlarini to'liq bajargach, Bank ushbu shartnomadagi majburiyatlarini o'z vaqtida yoki to'liq bajarmagan taqdirda, kechiktirilgan har bir kun uchun garovga olingan mulk qiymatining 0.1 foizi miqdorida penya to'laydi.

5.2.3. Shartnomada bo'yicha hisoblangan penya va jarimalarni to'lash/yoki ixtiyoriy to'lash, taraflarni shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Shuningdek, ikkinchi tarafni majburiyatlar bajarilmaganligi sababli tegishli choralar qo'llash huquqidан mahrum qilmaydi.

5.2.4. Qarzdorlik bo'yicha hisoblangan foizlar va neustoykalarning eng ko'p summasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdordan oshib ketmasligi lozim.

5.2.5. Garovga qo'yilgan kvartira Kredit oluvchining g'ayri qonuniy qilmishlari oqibatida xatlansa Kredit oluvchi Bankni 3(uch) kun mobaynida xabardor qiladi. Kredit oluvchi o'z vaqtida Bankni ushbu holat bo'yicha habardor qilmasa, Bank oldidagi majburiatlardan ozod etilmaydi.

6. Shartnomani bekor qilish asoslar.

6.1. Kredit oluvchi(BKO)ni Bank kredit ajratishdan avval mavjud bank kartalarini "Avto-to'lov" xizmatiga ular majburiyati haqida ogoxlantirishi lozim.

6.2. Kredit oluvchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.1.15-bandni ijrosi ta'minlamagan taqdirda, bank kredit berishni rad etishga haqli.

7. Kredit ta'minoti.

7.1. Kreditning asosiy ta'minoti kredit hisobiga sotib olingan kvartira hisoblanadi. Bank tononidan garov sug'urtalanib, sug'urta shartnomasi va sug'urta polisi rasmiylashtiriladi.

7.2. Kredit hisobiga sotib olinadigan uy-joy/kvartira notarial yoki bank tomonidan garov shartnomasi tuziladi. Har ikkala holatda ham garov mulki bo'yicha garov reestriga yozuvlar kiritiladi va garov mulkiga nisbatan taqiq qo'yiladi.

8. Shartnomaning amal qilish muddati, shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi hamda boshqa qoidalar.

8.1. Shartnomalar imzolagan kundan e'tiboran kuchga kiradi va taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amalda bo'ladi.

8.2. Ushbu shartnomaning shartlarini o'zgartirish yoki uni bekor qilish qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda tuzilib, taraflarning vakolatlari vakillari imzolaganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Barcha o'zgartirish, qo'shimchalar va ilovalar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

8.3. Quyidagi asoslar yuzaga kelganida, Bank mazkur shartnomani muddatidan oldin bekor qilish va undiruvni garovdagi yoki boshqa likvidli mol-mulklarga qaratishi mumkin:

a) Kredit oluvchi tomonidan shartnomada tuzishda yoki kredit operatsiyalarini bajarish vaqtida Bankka noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish faktlari aniqlanganda;

b) Kredit oluvchi/BKOning psixo-nevrologik dispanserlariga, psixiatrik klinikalarga, giyohvandlik va alkogolizmdan davolanish klinikalariga joylashtirilishi to'g'risida ma'lumot olingan taqdirda;

c) kreditni qaytarish jadvalini kamida uch va undan ortiq marotaba buzgan taqdirda;

d) kredit va unga hisoblangan foizlarni kreditni qaytarish jadvalida belgilangan muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga sababsiz kechiktirilganida;

e) Mazkur shartnomada belgilangan, kredit hisobiga sotib olingan uy-joy/kvartiraning o'z muddatida garovga taqdim etilmaganida;

f) Kredit oluvchi/BKO garovga olingan uy-joy/kvartirani monitoring qilinishiga to'sqinlik qilganida.

g) Kredit oluvchi garovga olingan kvartirani Bankning roziligidisiz uchinchi shaxslarga ijaraga, tekin foydalanishga, boshqa har qanday asoslarga ko'ra bersa, shuningdek, noqonuniy ravishda tasarruf etsa;

h) Bank tomonidan yuqoridagi asoslarga ko‘ra, kreditni muddatidan oldin to‘liq qaytarish talabi asosida undiruvni qarzdor xisobidan va kredit ta’mnotiniga qaratish yuzasidan tegishli sudga ariza/da’vo ariza bilan murojaat qilingan hollarda, sud muhokamalariga qadar yoki sud muhokamalari jarayonida qarzdor tomonidan muddati o‘tgan kredit qarzni to‘lab qo‘yishligi da’vogar (bank) tomonidan da’voni qaytarib olishga yoki da’vodan voz kechishga asos bo‘lmaydi;
i) Qonunchilikda belgilangan boshqa asoslarga ko‘ra.

9. Mahfiylik.

9.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma’lumotlar mahfiy axborotlar deb tan olinadi.

9.2. Taraflar shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog‘ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan mahfiy axborotlar va ma’lumotlarni axborot egasining yozma rozilgisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

9.3. Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil mobaynida amal qiladi.

9.4. Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zaramni to‘liq xajmda qoplaydi.

10. Alovida shartlar, kafolatlar va bildirishlar.

10.1. Mazkur shartnomani imzolash bilan Kredit oluvchi Bankka uning shaxsiy ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishslash, saqlash va undan foydalanishga quyidagi hollarda rozilik beradi: Kredit oluvchi manfaatdor bo‘lgan shartnomalarni tuzishda va ijrosini ta’minalashda; Kredit oluvchining shartnomada belgilangan huquqlari va majburiyatlarning bajarilishini ta’minalashda, ularning bajarilishini talab qilish va qarzdorlikni undirishda; ma’lumotlarni tekshirish, shu jumladan firibgarlik holatlarini oldini olish maqsadida; shartnomaning ijrosini ta’minalash bilan bog‘liq ma’lumotlarni Kredit oluvchi/BKOga yetkazishda.

10.2. Ushbu bilan Kredit oluvchi/BKO to‘lov jadvali asosida kredit to‘lovi bo‘yicha telefon qo‘ng‘iroqlari qilinishiga, SMS-xabarnomalarini uyali telefon raqamlariga, shuningdek Kredit oluvchi tomonidan taqdim etilgan boshqa yashash manzillarga (rekvizitlarga), barcha aloqa vositalaridan foydalangan holda yuborilishiga rozilik beradi.

10.3. Bank tomonidan yuborilgan SMS xabarnomalar, qilingan qo‘ng‘iroqlar, yuborilgan ogoxlantirish xatlari va boshqalar qarzni qaytarishning zarur choralarini bo‘lib, sud va boshqa organlarda dalil bo‘lib xizmat qiladi.

10.4. Ushbu shartnomaga o‘zgartirishlar taraflarning yozma kelishuvlariga asosan amalga oshiriladi.

10.5. Kredit oluvchi Bank oldidagi barcha majburiyatlarni bajargan taqdirda, Bank notariusga (bundan birlamchi bozordan ko‘chmas mulk olish chog‘idagi ipoteka shartnomasi mustasno) va boshqa organlarga garov mulkiga solingen taqiqni bekor qilish uchun yozma xabar beradi.

10.6. Monitoring, joyiga chiqib ishni o‘rganish ishlari yozma ravishda rasmiylashtirib olib boriladi.

a. Mijozga bank xizmatini taklif qilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so‘ng 3 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma’lumotini olib qayta ishlagan holda taxlil o‘tkazishga mijoz o‘z roziligini beradi.

11. Fors-major

11.1. Yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chki, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlari (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to‘lov hamda ta’mnotin tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta’mnotin tizimiga qilingan tahdid (uchinchchi shaxslar tarafidan qilingan hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga qabul qilingan

majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

11.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtida taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

11.3. Yuzaga kelgan Fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtidan boshlab 3 bank ish kuni ichida bu haqda ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

11.4. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

11.5. Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo'ladilar.

12. Nizolarni hal etish tartibi va boshqa shartlar.

12.1. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

12.2. O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan taraf yuborgan talabnama yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur hujjatlarda ko'rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

12.3. Talabnama yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirilishi, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali yuborilishi mumkin.

12.4. Tinch yo'l bilan hal etilmagan nizolar BXO joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

12.5. Mazkur shartnomada va uning ilovasi bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Kredit oluvchida saqlanadi.

13. Taraflarning yuridik manzilgohlari

Kredit oluvchi/BKO ipoteka krediti to'g'risidagi barcha ma'lumotlar shartnomada tuzilishidan avval unga bepul taqdim etilgani va ushbu shartnomada imzolanmasidan oldin tanishib chiqishi uchun o'zi bilan olib ketishga haqli ekani haqda ogohlantirilganligini o'z imzolari tasdiqlaydi

Kredit oluvchi

Manzil: _____

Shaxsini tasdiqlovchi xujjat(ID): _____

Seriya _____ №_____

13.11.2014 yilda _____ tomonidan
berilgan.

fuqaro: _____

(imzo)

Birgalikda kredit oluvchi

Manzil: _____

Shaxsini tasdiqlovchi xujjat(ID): _____

Seriya _____ №_____

20.05.2014 yilda _____ tomonidan
berilgan.

fuqaro: _____

(imzo)

Bank

Manzil: _____

x/r: _____

MFO: _____

INN: _____

Boshqaruvchi: _____

(imzo)

www.hamkorbank.uz

Tel: 0-800-1-200-200

Hurmatli qarz oluvchi! Kredit va unga hisoblangan foizlar o‘z vaqtida to‘lanmagan tagdirda Sizning kredit tarixingizda majburiyatlar o‘z vaqtida bajarilmaganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar shakllanadi va bu esa o‘z navbatida kelgusida kredit tashkilotlaridan kredit olish imkoniyatingizni pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shartnama mazmuni va mohiyati bilan to‘liq tanishib chiqdim hamda bir nusxasini oldim.

“ ” 20 __ yil
(imzo) (Kredit oluvchi FISH)

Shartnama mazmuni va mohiyati bilan to‘liq tanishib chiqdim hamda bir nusxasini oldim.

“ ” 20 __ yil
(imzo) (BKOning FISH)

_____ kungi imzolangan № _____ - sonli kredit shartnomasi bo'yicha kredit va foizlarni **qaytarish jadvali**

No	To'lov kuni	Muddati o'tadigan kun	Asosiy kredit to'lov summasi	Xisoblangan foizning kaytarilish summasi	Jami to'lov	Sundirilgungacha kredit qoldig'i summasi	Sundirilgandan keyingi kredit qoldig'i summasi
1							
2							

Ushbu qaytarish jadvalida ko'rsatib o'tilgan muddatlarda to'lovlarni amalga oshirish majburiyati olaman. Bankning "Avto-to'lov" xizmati orqali shaxsiy bank kartamdan qaytarish jadvaliga asosan kredit mablag'ining oylik to'lovlarini undirib olinishiga qarshiligidim yo'q.

ID: _____

Parol: _____

MBXO/UBXO boshlig'i

Kredit oluvchi

(imzo)

(imzo)

Kredit mutaxassisni

(imzo)

yil